

"YASHIL IQTISODIYOT"GA O`TISH YO`NALISHLARI VA USTUVORLIK XUSUSIYATLAR

Ne'matullayev Bekmirzo Bozorboy o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Agrobiznes va investitsion faoliyat

ta'lim yo'nalishi 3-kurs 66- guruh talabasi

Tel 998 91 611 42 11

nematullayevbekmirzo7@gmail.com

Kamoliddinov Sherzodbek Latifjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Agrobiznes va investitsion faoliyat

ta'lim yo'nalishi 3-kurs 67- guruh talabasi

Tel 998 94 564 49 55

sherzodbekkamoliddinov071@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ekologiya va iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi, iqtisodiy faoliyatning atrofmuhitga ta'siri hamda natijalari ko'rib chiqiladi. Mamlakat iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarishi natijasida yuzaga keladigan ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytirilishi uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tish hamda uning afzalliklari yoritib beriladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda eko-innovatsiyalar va yashil investitsiyalar borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi keng o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: barqaror rivojlanish, atrof-muhit, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, "yashil iqtisodiyot", eko-innovatsiya, eko-investitsiya, qayta tiklanadigan energiya, iqtisodiyotni ekologizatsiyalash, "yashil" ish o'rinlari, ekologik texnologiyalar.

Globalashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Xorijda bu o'tishni amalga oshiruvchi "yashil o'sish" iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030- yilgacha) rivojlanishi uchun strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan (8). Inqirozga qarshi salohiyat nuqtai nazaridan, eko-innovatsiyalar, yashil investitsiya va, umuman, yashil iqtisodiyot, bandlikni oshirish, ishsizlikni yumshatish, iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyatni rag'batlantirish va retsessiyadan tezroq chiqib ketish imkonini beradi. Eko-

innovatsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda, atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanish orqali sezilarli va aniq o'sishga qaratilgan har qanday yangilik shakli sifatida ta'riflanadi, yashil iqtisodiyotning esa umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislari (UNEP) "yashil iqtisodiyot"ni iqtisodiy faoliyat sifatida hisobga olib, bu tushunchani keng tushunishni taklif etadi, ya'ni "yashil iqtisodiyot insonlarning farovonligini yaxshilaydi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytiradi" degan ta'rifni beradi. "Yashil iqtisodiyot"ning bu ta'rifi deyarli yaxshi ma'lum bo'lgan barqaror rivojlanish kontseptsiyasidan farq qilmaydi (3). Yana tor ma'noda, "yashil iqtisodiyot"ni ifloslantiruvchi moddalar va issiqxona gazlarining emissiyasini nazorat qilish va kamaytirish, iqlim o'zgarishini kuzatish va prognozlash, shuningdek, energiya va resurslarni tejash texnologiyalarini va qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanish tushuniladi. Bu binolar va inshootlarni harorat, namlik va shamol yukining keskin o'zgarishlaridan himoya qilish uchun texnologiyalar va materiallarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi; ekologik toza mahsulotlar, shu jumladan, qishloq xo'jaligi (oziq-ovqat, tabiiy tolalar) va iste'mol tovarlarini (kimyoviy qo'shimchalarsiz tabiiy va tabiiy asosda dorilar va shaxsiy parvarish mahsulotlari) ishlab chiqarish, boshqacha aytganda, "yashil iqtisodiyot" iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga hayot sifatini va turmush sharoitini yaxshilashga ko'maklashadigan xo'jalik faoliyatining turlari va natijalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyot" turli mamlakatlarning rasmiy hujjatlarida turlicha aks ettirilgan: birinchi navbatda, rivojlangan davlatlar orasida raqobat, ish o'rinlarini, rivojlanayotgan mamlakatlarda - barqaror rivojlanish, qashshoqlik muammolarini hal qilish, fuqarolar ishtiroki hamda tenglik masalalari, va BRIKS guruhi davlatlarida - resurslardan foydalanish samaradorligi sifatida belgilangan. Biroq, atrof-muhitni rivojlantirish sohasidagi eng dolzarb muammolar, avvalambor, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi cheklovlar ushbu hujjatlarning hech biridagi "yashil iqtisodiyot"ning ta'riflarida ko'rinmaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning eng muhim jihati bu iqtisodiyotning o'zi va ijtimoiy-iqtisodiy sohasi ekanligidir(8). Yevropa hamjamiyatining 2050-yilgacha "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha strategiyasida "yashil iqtisodiyot" ekosistemalarni (tabiiy resurslar), iqtisodiyotni (moddiy resurslar) va jamiyatni birlashtiradigan tizimni o'zida ko'rsatib berishi kerakligi ta'kidlangan (12). Asosiy qism Jahon iqtisodiyotidagi "yashil" sektorning miqyosi hali nisbatan kichik, shuning uchun iqtisodiyotning "yashil kurtaklar" atamasi "yashil iqtisodiyot" tushunchasi bilan birga odatda maxsus adabiyotlarda ham qo'llaniladi. Haqiqatan ham, ushbu sohada mahsulot va

xizmatlarning qiymati 2010-yilda 2 trln. AQSh dollarini yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 2,7 foizni, foyda esa 530 mlrd. AQSh dollarini, ish bilan bandlik - 10 mln. kishini tashkil etgan. Biroq, "yashil" sektorning ushbu sohadagi salohiyatlari va investitsiyalarining asosiy qismini jamlovchi ayrim davlatlarning iqtisodiy kompleksini rivojlantirishga qo`shgan hissasi sezilarli darajada yuqori: AQShda "yashil iqtisodiyot" 600 milliard dollardan ortiq mahsulot va xizmatlarni taqdim etadi (YaIMning 4,2%), bandlik 3 million kishiga baholanadi; Yaponiyada - YaIMning mos ravishda 3,4 foizi va 1,5 mln. ; Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida jami YaIMning 2,5 foizi va 3,4 milliondan ortiq kishi; biroq ayrim mamlakatlarda bu ko`rsatkichlar yuqoriroq: Germaniyada esa YaIMning 4,8%i, bundan tashqari, Germaniya ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni eksport qilishda (xususan, iqlimni tejoychi uskunalardagi jahon savdosining 12% dan ortig`i) dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri; yalpi ichki mahsulotda "yashil" sektor ulushi bo`yicha dunyoda yetakchi bo`lgan Buyuk Britaniyada bu ko`rsatkich 240 milliard dollarni (yoki YaIMning 8,8 foizini) tashkil etadi, uning eksportdagi ulushi 5 foizni va umumiy ish bilan ta`minlanish darajasi 3 foizni tashkil etgan(6). Mutaxassislar fikricha, "yashil iqtisodiyot" an`anaviy "jigarrang iqtisodiyot"ga qaraganda qisqa muddatda YaIMning o`shirishini, aholi jon boshiga to`g`ri keladigan daromadning ortishini va ish bilan ta`minlanishni bir xil yoki undan yuqoriroq ko`rsatkichda oshirishi mumkin. So`nggi paytlarda o`tkazilgan xalqaro munozaralar "yashil iqtisodiyot" tushunchasini aniq ishlab chiqish, uni barcha mamlakatlar manfaatlarini nuqtai nazaridan amalga oshirish bo`yicha chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko`rsatadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o`tish strategiyasi yirik investitsiyalarni (yiliga YaIMning 2 foizigacha) talab qiladigan murakkab jarayon bo`lib, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ta`sir qiladi(7). Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni rag`batlantiradi, ijtimoiy barqarorlikka ko`maklashadi, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o`rinlarini yaratish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga erishish mumkin. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) prognozlariga ko`ra, ishlab chiqarish va iste`mol qilishning zamonaviy usulida davom etilsa, 2050-yilga kelib, 2000- yil bilan solishtirilganda, o`simlik va hayvonot dunyosining 61 foizdan 72 foizigacha yo`qotiladi va tabiiy hududlar esa 7,5 mln. kv.m.ga qisqaradi(9). 2015-yilda, Global Footprint Network loyihasining olimlar guruhining hisob-kitoblariga ko`ra, sayyoramizning yillik resurslari (foydalanadigan va keyinchalik qayta tiklanishi mumkin bo`lgan resurslar miqdori) faqat 7 oy va 13 kun ichida tugagan. Olimlar 1970-yillardan buyon bunday hisob-kitoblarni amalga oshirmoqdalar va har yili yillik resurslar tez va tez sarflanayotganligini guvohi bo`lishmoqda. Masalan, 2015-yilda resurslar hajmi 2014- yilga nisbatan olti kun avval tugaganligi bu, albatta, resurslardan oqilona foydalanish hamda mamlakatlarning ekologiyaga zarar yetkazmagan holda rivojlanishini ta`minlash g`oyasini ilgari surish

zarurligini ko`rsatadi. Agar yangi iqtisodiy siyosat olib borilmasa, OECDning 2050-yilgi prognozlariga ko`ra dunyo energiya talabi 80% ga ortadi. Mamlakatlar miqyosida tahlil qilinadigan bo`lsa, Janubiy Afrika 15%, OECD yevropa mamlakatlarida talab 28% , Yaponiya 2,5%, Meksikaning energiya talabi 112% ortishi kutilmoqda. Issiqxona gazlari emissiyasi 50%ga ortadi va havo ifloslanishini yomonlashtiradi. Shaharlarning ifloslanishi 2050-yilga kelib eng katta muammoga aylanadi. Bunda ichimlik suvlarining ifloslanishi va sanitariyaning yomonlashuvi yetakchilik qiladi. Nihoyatda og`ir havo ifloslanishi sababli yuzaga keladigan bevaqt o`limlar soni yiliga 3.6 millionga yetadi va bu bo`yicha Xitoy va Hindistonning ulushi sezilarli darajada ko`p bo`ladi. Yer yuzi 10%gacha qisqarib ketadi, ayniqsa, bu Osiyo, Yevropa va Janubiy Afrika davlatlarida ko`proq kuzatilishi kutilmoqda. Tabiiy o`rmonlar maydoni 13%gacha qisqarishi prognoz qilingan (2). Ushbu global xavflarni oldini olishda eng asosiy e`tibor iqtisodiyotni ekologizatsiyalashtirishga qaratilishi lozim. Bunda "yashil iqtisodiyot"ga o`tish, eko-innovatsiyalar hamda ekologik investitsiyalarni joriy etish kabi bir qancha chora-tadbirlar mavjud. Innovatsiyalar ekologik samaradorlik va iqtisodiy o`sinh uchun asosiy omil hisoblanadi. Eko-innovatsiya - bu atrof-muhitga ta`sirni kamaytirishga olib keladigan har qanday innovatsiya; bu yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy zahiralarni tejaydigan va minimal zaharli moddalarni chiqaradigan tizimlar va jarayonlarni yaratishdir (10). Ekoinnovatsiyalar - bu faqatgina tabiiy resurslarni va umuman atrof-muhitni saqlab qolish vositasi emas, balki resurslardan oqilona, zamonaviy, ishonchli foydalanish bilan bir vaqtda mamlakatning iqtisodiy farovonligini va umuman raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yordam beruvchi juda samarali vosita. Ekologik yo`naltirilgan rivojlanish siyosatini olib borish sur`ati innovatsion rivojlanish va innovatsion o`zgarishlar hisobiga jadallashmoqda. Dunyo bo`ylab umumiy ixtirolar soni 2000-yildan buyon 2017-yilgacha 30% ga ortgan bo`lsada, iqlim o`zgarishini qisqartirishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalar soni esa shu vaqt davomida uch barobar ortdi. Bunday texnologiyalarning deyarli 90%i OECD mamlakatlari hissasiga to`g`ri keladi. Innovatsion texnologiyalar orqali past narxlarda ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin, bu, o`z navbatida, yangi biznes imkoniyatlari va yangi bozorlar paydo bo`lishini ta`minlaydi. Mamlakatlar miqyosida tahlil qilinganda, Germaniya iqtisodiyotning barcha sohalariga yashil tamoyillarni joriy etishda chiqindisiz ishlab chiqarish siklini yaratgan ushbu sohadagi ilg`or davlatlardan biridir. Germaniya chiqindilarni qayta ishlash hamda ulardan qayta foydalanish bo`yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Germaniyada patentli texnologiyalarning 23 foizi atrof muhit sohasiga to`g`ri keladi va shamol, quyosh energetikasi sohasidagi kompaniyalarning 30 foizdan ortig`i nemis kompaniyalariga tegishli. Yashil sektorda, ya`ni atrof-muhit va iqlimni muhofaza qilish bilan bog`liq bo`lgan sohalarda (energiya, transport, qayta ishlash, chiqindilarni yo`q qilish va boshqalar) nemis korxonalaridagi faoliyat

yuritayotgan ishchilar soni, taxminan 2 million kishini yoki jami iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil qiladi. Bugungi kunda bu ko`rsatkich o`shish tendensiyasiga ega. Ekologik innovatsiyalar sohasida Shvetsiya tajribasi muhim ahamiyatga ega. Shvetsiya - qayta tiklanadigan energiya va mahalliy yoqilg`i manbalaridan foydalanish bo`yicha jahonda yetakchi mamlakat hisoblanadi. Yel universiteti olimlari tomonidan sayyoradagi "yashil" mamlakatlar ro`yxatini ishlab chiqilganda, Shvetsiya ushbu reytingda birinchi o`rinni egallagan. Bugungi kunda mamlakat hukumati iqtisodiyotning barcha sohalarida yashil tamoyillarni joriy etish bo`yicha faol siyosat olib bormoqda. Energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalari asosiy va ustuvor yo`nalishlar bo`lib, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi siyosat darajasiga chiqarilgan(11). Shvetsiyada maishiy chiqindilarning 96 foizi yo`q qilinadi, bu dunyodagi eng yuqori ko`rsatkichlardan biridir. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o`tishda uy egalari soliq imtiyozlari beriladi. Shuningdek, avtomobil uchun ekologik toza yoqilg`idan foydalanadigan avtomobil egalari uchun soliq ham kamaytiriladi. Bundan tashqari, shaharda bepul mashinajoylari ham taklif etiladi. Mamlakatda bunday avtomobillarning ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Bular, albatta, mamlakat ekologiyasiga o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatuvchi qo`shimcha chora-tadbirlar guruhiga kiradi. Ekologik investitsiyalar uchun moliyaviy imtiyozlar bo`yicha Gollandiya tajribasiga qaraydigan bo`lsak, Gollandiya MIA va VAMIL - Gollandiyalik kompaniyalar tomonidan ekologik texnologiyalardan foydalanishga rag`batlantirishning ikki alohida choralari sifatida qaraladi. MIA va VAMIL Gollandiyada alohida-alohida rag`batlantiruvchi choralar hisoblansada, bu chora-tadbirlar juda ko`p o`xshashliklarga ega. VAMIL kompaniyalarga atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligining rasmiy ro`yxatida belgilangan texnologiyalarning (uning qiymatining 75 foizigacha) amortizatsiya davrini mustaqil ravishda belgilashga imkon beradi. Shuning uchun VAMIL tadbirkorlarga texnologiyalarni tezkor tarzda amortizatsiya qilish yo`li bilan moliyaviy afzallikka ega bo`lishini ta`minlaydi. Shu bilan birga VAMIL usulidan foydalanish beradigan imkoniyatni aniq belgilash qiyin, chunki bu tadbirkorlarning VAMIL da qatnashish uchun ariza berishidagi aniq sharoitlarga bog`liq. Bu imkoniyat odatda amalga oshirilgan kapital qo`yilmalarining 3-8%ga teng deb baholanadi. MIA kompaniyalarga ularning investitsion qiymatining 36%igacha ekologik investitsiyalarni ayirib tashlash imkonini beradi. MIA tizimi bilan foyda qo`llaniluvchi soliq tartibi va kapital qo`yilmalarga bog`liq (korporativ yoki daromad solig`i). Soliqdan chiqarib tashlanadigan kapital qo`yilmalarning foizdagi ulushi ekologik ro`yxatda aniq belgilangan. Kapital qo`yilmalar va qo`llaniluvchi texnologiyalar xususiyatiga bog`liq holda 15, 30, 40% ayirib tashlanishi mumkin. Ikki tizimdan ham har qanday kompaniya foydalanishi mumkin. Shu bilan birga, ariza beruvchilarning 93%ini kichik va o`rta korxonalar tashkil qilib ularning ko`pchiligi qishloq xo`jaligi bilan shug`ullanadi, sababi bu sektorlarning tarmoq birlashmalari

korxonalarga ushbu soliq vositasidan foydalanish natijasida olinuvchi imkoniyatlarni samarali belgilaydi(1). Davlat iqtisodiyotida yashil sektor ulushini ko`paytirish uchun tezlashtirilgan amortizatsiya, mulk solig`i yoki daromad solig`ini kamaytirish kabi soliq imtiyozlarini qo`llashi mumkin, ayniqsa, kichik va o`rta korxonalarni ekologizatsiyalashni amalga oshirish uchun davlat moliya muassasalari tomonidan imtiyozli kreditlar va yashil texnologiyalarga investitsiyalar kiritishi mumkin. Ammo davlat ekologik muvofiqlikni ta`minlash uchun biznes subsidiyalarini taqdim etishi to`g`ri hisoblanmaydi. Uning o`rniga, davlat organlari korxonalarining moliyaviy holatini rag`batlantirishda ekologik omillarga e`tibor qaratilish mezonini o`zida aks ettiruvchi xususiy banklar va sug`urta kompaniyalarini kengaytirishi kerak. Ya`ni, banklar kreditni tasdiqlashdan oldin ekologik ko`rsatkichlar ro`yxatini talab qilishi mumkin, sug`urta kompaniyalari esa ekologik xavflar va ularni kamaytirish choralari bo`yicha identifikatsiya deklaratsiyasini tuzishlari mumkin. Shuningdek, banklar va sug`urta kompaniyalari ekologik samaradorligi yuqori bo`lgan kompaniyalar uchun imtiyozli qulay shartnoma shartlarini taqdim etishi mumkin. "Yashil biznes" amaliyotida korxonalarga axborotlarni tarqatish va dastlabki ishtirokini ta`minlash uchun bevosita subsidiyalar ajratish va bepul texnik yordam ko`rsatish ancha samara beradi. Biroq, hozirgi kunda ko`plab davlatlarning "yashil amaliyotlar"ni joriy etish va rag`batlantirish uchun moliyalashtirish bo`yicha qonuniy me`yorlari yetarli emas, shunga ko`ra, yashil iqtisodiy tizimga bosqichma-bosqich o`tishda korxonalarga texnik yordam ko`rsatish uchun moliyaviy ajratmalar korxonalarining uzoq muddatli eko-iqtisodiy barqarorligiga yordam beradi. Xulosa Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o`rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag`batlantiradi (5). "Yashil iqtisodiyot", asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o`sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta`minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta`minlaydi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyotga" o`tish iqlim o`zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo`qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Ammo butun jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylik xususiyati namoyon bo`ladi, ya`ni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to`plagan, o'z qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan vaqtda jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda ekologik yo`naltirilgan model tanlanmas ekan, globallashtirish sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo`q bo`lib ketishgacha borish xavfi yuzaga keladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik ob’yektlaridan samarali foydalanish, ko’rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko’paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag’ishlangan yig’ilishdagi ma’ruzasi // 2017 yil. 3oktabr. www.uza.uz

2. O’zbekiston Respublikasi preidentining 2016 yil 2 dekabdagi “O’zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-4861-sonli farmoni.

3. O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 – son farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi.

4. Ergashev F., Raximova D., Sagdullaev A., Parpiev O., Zaynutdinov Sh. «Innovatsion menedjment» Darslik. Toshkent, «Akademiya», 2017